

Iqtisodiyot fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası assistenti Narziyeva Guzal tomonidan “Qimmatli qog’ozlar va moliya bozori” fanidan “Moliya bozorining fundamental tahlili” mavzusida tayyorlangan ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga

T A Q R I Z

Ma’lumki, moliya-kredit sohasi bozor iqtisodiyotidagi transaksiyalarga xizmat ko’rsatish, moliyaviy resurslar (jamg’armalar)ni jamlash, taqsimlash, boshqarish va qayta taqsimlash hamda ularni nazorat qilish funktsiyalarini bajaruvchi murakkab tizimdir. Bunda moliya bozori moliya-kredit sohasining alohida bo’g’ini bo’lib, u orqali moliyaviy resurslar moliyaviy vositalar (instrumentlar) yordamida talab va taklif asosida qayta taqsimlanadi. Shuning uchun moliya bozorini moliyaviy instrumentlar bo’yicha talab va taklif funktsiyasi deb atash mumkin. Unda iqtisodiyot sub’yektlari o’z maqsadlari va funktsiyalari ila moliyaviy instrumentlar yordamida bozor munosabatlariga kiradilar.


Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini insoniyat jamiyatida pulning paydo bo’lishi va u bilan bog’liq bozor munosabatlari amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko’rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson sivilizasiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxsiarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari ortib, manfaatlari tobora o’sib, ularning xaq-huquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta’minlanib borishidadir.

Fundamental tahlil – bu moliya bozorida aktivlarning (aksiyalar, obligatsiyalar, valyuta, tovarlar va boshqalar) haqiqiy (ichki) qiymatini aniqlashga qaratilgan chuqur iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillarni o’rganish usulidir. Uning asosiy maqsadi — aktivning bozordagi narxi uning haqiqiy iqtisodiy qiymatiga mos keladimi-yo’qmi, shuni belgilash

G. Narziyeva tomonidan ochiq ma’ruza darsi uchun tanlangan “Moliya bozorining fundamental tahlili” mavzusi “Qimmatli qog’ozlar va moliya bozori” fanining fan dasturi va ishchi o’quv dasturi (sillabusi)ga to’liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma’ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo’yicha taqdimotlar, ma’ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o’quv faoliyat natijalari bir-biriga bog’langan holda to’liq ko’rsatilgan hamda o’quv-uslubiy jihatdan to’g’ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o’tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**“Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi”
kafedrası dotsenti, i.f.n.**



Iqtisodiyot fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası assistenti Narziyeva Guzal tomonidan "Qimmatli qog'ozlar va moliya bozori" fanidan "Moliya bozorining fundamental tahlili" mavzusida tayyorlangan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

TAQRIZ

Moliya bozori va qimmatbaho qog'ozlar- bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslarni subyektlari o'rtasida taqsimlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslarni tarmoqlar o'rtasida samarali taqsimlash, vaqtinchalik bo'sh turgan moliyaviy resurslarni harakatga keltirish orqali iqtisodiy o'sishni va investitsion faollikni ta'minlash bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki global iqtisodiyot rivojini ham belgilamoqda. Bunga tasdiq sifatida iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligini keltirish mumkin

Fundamental tahlil narxlarga ta'sir etadigan iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar mavjudligidan va ularning o'zaro aloqalarini tahlil qilish yo'li bilan bunday ta'sir darajasini aniqlash mumkin ekanligidan kelib chiqadi. Fundamental tahlil bozordagi har qanday harakatlarni osonlik bilan tushuntirishga imkon beradi. Odamlarga siyosat va iqtisodiyot haqida muhokama qilish, kelajak rivojlanishining turli ssenariylarini ko'rib chiqish yoqadi, shu sababli "fundamentalistlar" tavsiyalariga talab katta bo'lib, ko'pchilik savdo kunini aynan fundamental tahlilchilarning tavsiyalarini ko'rib chiqishdan boshlaydi.

G. Narziyeva tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan "Moliya bozorining fundamental tahlili" mavzusi "Qimmatli qog'ozlar va moliya bozori" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

TDIU Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası mudiri, dotsenti, i.f.n

M.Mardonov.

